

Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruv: institutsional omillar va yashil transformatsiya mexanizmlarining integratsiyasi

Shonazarov Farxod Shodiyor o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, mustaqil izlanuvchi
<https://orcid.org/0009-0001-3804-9366>
farkhodshanazarov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida data-driven boshqaruvni cheklayotgan institutsional omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Me'yoriy-huquqiy bazaning fragmentarliligi, tizimlar o'rtasidagi interoperability pastligi, compliance-driven raqamlashuv va ma'lumotlar siyosatidagi noaniqlik asosiy institutsional to'siqlar sifatida aniqlandi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish yo'llari yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Institutsional omillar, raqamli boshqaruv, interoperability, data-ownership, yashil transformatsiya, aksiyadorlik jamiyati

Аннотация : В статье систематически анализируются институциональные факторы, ограничивающие data-driven управление в акционерных обществах. Фрагментарность нормативно-правовой базы, низкий уровень интероперабельности систем, compliance-ориентированная цифровизация и неопределённость политики в отношении данных выявлены как основные институциональные барьеры. Пути преодоления этих барьеров разрабатываются в контексте зелёной экономики и устойчивого развития.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Институциональные факторы, цифровое управление, интероперабельность, data-ownership, зелёная трансформация, акционерное общество

Abstract: This article systematically analyses the institutional factors constraining data-driven governance in joint-stock companies. Fragmentation of the regulatory framework, low interoperability between systems, compliance-driven digitalisation and ambiguity in data policy have been identified as the main institutional barriers. Ways to overcome these barriers are developed in the context of the green economy and sustainable development.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Institutional factors, digital governance, interoperability, data ownership, green transformation, joint-stock company

Ko'p omilli regressiya tahlili ($R^2=0,94$) raqamli boshqaruv samaradorligiga infratuzilma ($\beta=0,37$) va institutsional sifat ($\beta=0,29$) eng kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Biroq statistik model «nima miqdorda» degan savolga javob bergan bo'lsa, «nima uchun» raqamli infratuzilma mavjud bo'lishiga qaramasdan data-driven boshqaruv aksiyadorlik jamiyatlarida hali to'liq institutsionallashtirilmagan — bu savol institutsional tahlilni talab etadi. D. North (1990) ning institutsional iqtisodiyot konsepsiyasiga ko'ra, rasmiy normalar (qonunlar, standartlar) va norasmiy me'yorlar (tashkiliy madaniyat, boshqaruv uslubi) raqamli transformatsiyaning ildiz otishi yoki yuza qolishini belgilaydi. Barqaror yashil transformatsiya uchun raqamli boshqaruvning institutsional to'siqlarini bartaraf etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari. Birinchi institutsional to'siq — me'yoriy-huquqiy bazaning fragmentarligi. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun (560-II, 2003), «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-395, 2015), «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-793, 2022) va PF-6079-son farmon umumiy huquqiy dorani belgilagan. Biroq aksiyadorlik jamiyatlarida AI, prediktiv analitika va ma'lumotlar bazalariga oid yagona yondashuv hali shakllanmagan — bu qaror qabul qilishda huquqiy noaniqlik va risklarni oshiradi (North, 1990).

Ikkinchi to'siq — tizimlar o'rtasidagi interoperability pastligi. Ma'lumot almashinuvi cheklangan, formatlar standartlashmagan — bu integratsiyalashgan boshqaruv va «single source of truth» shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Williamson (1985) ning transaksion xarajatlar nazariyasi nuqtai nazaridan, interoperability pastligi koordinatsiya xarajatlarini oshirib, data-driven qarorlar iqtisodiy samarasini pasaytiradi.

Uchinchi to'siq — regulyator talablarning ustuvorligi (compliance-driven raqamlashuv). Raqamlashuv ko'p hollarda hisobot va nazorat talablarini bajarishga qaratilgan bo'lib, strategik analitika va prognozlash vositalari rivojlantirilmayapti.

Jensen va Meckling (1976) ning agentlik nazariyasiga ko'ra, komplains yo'nalishidagi raqamlashuv agentlik muammosini bartaraf etmaydi — balki uni yashiradi. To'rtinchi to'siq — ma'lumotlar siyosatidagi noaniqlik (data ownership va data accountability qoidalarining aniq belgilanmaganligi) data-driven qarorlar mas'uliyatini tarqoqlashtiradi. Beshinchi to'siq — korporativ AI-xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi reglamentlarining yetarli emasligi AI va prediktiv analitikaning kengayishini cheklamoqda (Teece, 2007).

Muallif xulosasi. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruv samaradorligini cheklayotgan institutsional to'siqlar texnologik emas, balki huquqiy-me'yoriy va tashkiliy xarakter kasb etadi. Bu to'siqlarning mavjudligi texnik infratuzilma rivojlangan sharoitda ham data-driven boshqaruvning to'liq institutsionallashtirilishiga olib kelmoqda. Barqaror yashil transformatsiya uchun raqamli boshqaruvning institutsional bazasini mustahkamlash — me'yoriy-huquqiy normalarni takomillashtirish, interoperability standartlarini joriy etish va ma'lumotlar siyosatini aniqlashtirish — strategik ustuvorlik bo'lishi zarur.

Amaliy tavsiyalar. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida AI va ma'lumotlar siyosatiga doir yagona milliy standart va reglamentlar qabul qilish — data ownership, data accountability, ma'lumotlar sifati talablari aniq belgilanishi; ikkinchidan, hukumat, regulyator organlar va aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi uchun yagona interoperabil platform (API-gateway yoki data exchange hub) yaratish; uchinchidan, compliance-driven raqamlashuvdan value-driven raqamlashuvga o'tish uchun regulyator talablar tizimini qayta ko'rib chiqish va strategik analitika, prognozlash va risklarni oldindan boshqarish tizimlarini joriy etishni rag'batlantirish; to'rtinchidan, yashil transformatsiya maqsadlarini raqamli boshqaruv standartlariga singdirish — ekologik ma'lumotlar

hisobot tizimini (ecological data reporting) aktsiyadorlik jamiyatlari uchun majburiy qilish.

Adabiyotlar:

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990. 152 p.
2. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. New York: Free Press, 1985. 450 p.
3. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3, No 4. P. 305–360.
4. Teece D.J. Explicating Dynamic Capabilities // Strategic Management Journal. 2007. Vol. 28, No 13. P. 1319–1350.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Axborotlashtirish to'g'risida». 11.12.2003 y., 560-II-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Elektron hukumat to'g'risida». 09.12.2015 y., O'RQ-395-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son farmoni. 2020 yil 5 oktyabr.
8. OECD. Corporate Governance in Emerging Markets. Paris: OECD Publishing, 2020. 188 p.